XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING
QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2023 - yil 2 - fevral VI-60-18-8-110-K/23 Boysun tuman hokimligi

Boysun tumandagi "Munchoq", "Boshrabot", "Inkobod", "Sho'rsoy", "Mustaqillik", "Kosiblar" mahalla fuqarolar yig'inlari hududiy chegaralarini o'zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish hamda tumandagi "Ko'lqamish" mahalla fuqarolar yig'ini nomini "Kofrun" nomiga o'zgartirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi va "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 48-sonli qarori, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yil 8-oktyabrdagi 01-06/120-sonli yig'ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 13-dekabrdagi 07-18/8814-sonli xati hamda Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022-yil 28-dekabrdagi 08-11756-sonli ekspertiza xulosasi va Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2023-yil 10-yanvardagi "Mahallalarni bo'lish va yangi mahalla fuqarolar yig'inlarini tuzish haqida"gi 06-06/2-sonli xatlariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Boysun tumandagi "Munchoq", "Boshrabot", "Inkobot", "Sho'rsoy", "Mustaqillik", "Kosiblar" mahalla fuqarolar yig'inlari hududiy chegaralarini o'zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish hamda tumandagi "Ko'lqamish" mahalla fuqarolar yig'ini nomini "Kofrun" nomiga o'zgartirish to'g'risidagi

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 8-oktyabrdagi 01-06/120-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Surxondaryo viloyat komissiyasining 2022-yil 13-dekabrdagi 07-18/8814-sonli xati hamda Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2022-yil 28-dekabrdagi 08-11756-sonli ekspertiza xulosasi va Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha masalalari tuman komissiyasining 2023-yil 10-yanvardagi “Mahallalarni bo‘lish va yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarini tuzish haqida”gi 06-06/2-sonli xatlari ma’qullansin.

2. Boysun tumandagi “Munchoq”, “Boshrabot”, “Inkobod”, “Sho‘rsoy”, “Mustaqillik”, “Kosiblar” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallalar ro‘yxati va ularning nomlari **1-ilovaga**, yangi tashkil etilayotgan mahallalalar chegaralari va tavsifi **2-ilovaga** hamda tumandagi “Ko‘lqamish” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari soni 44 ta deb yuritilsin.

4. Tuman mahalla va nironiylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (X.Nazarov), Boysun tuman hokimligi:

yangi tashkil etilgan mahallalarning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratilsin;

hududlarga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Normamatov), Surxondaryo viloyat moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy byudjetdan belgilangan tartibda ajratish choralari ko‘rilsin.

6. Tuman statistikasi bo‘limi (A.Saidov) Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (M.Jo‘rayev), tuman qurilish bo‘limi (M.Mirzayev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini, shuningdek nomi o‘zgartirilgan mahallani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, mahallaning yangi nomi yozilgan ko‘rsatgich, belgi, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatilishi bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga

oshirsin.

7. Tuman ichki ishlar bo‘limi (F.Murtazoyev) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini, shuningdek, nomi o‘zgartirilgan mahalla hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hududlar aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

8. Ushbu qaror “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B.Hayitov) hamda tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (X.Nazarov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi v.b **UZBEKOVA ZOHIDA BAXROMOVNA**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023 yil 2 fevraldagi
VI-60-18-8-110-K/23-son qaroriga
1-ilova

Boysun tumandagi “Munchoq”, “Boshrabot”, “Inkobod”, “Sho‘rsoy”, “Mustaqillik”, “Kosiblar” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallalar ro‘yxati va ularning nomlari

T/r	**Bo‘linadigan mahallalarning nomi**	**Bo‘linish hisobiga yangi tashkil etilgan mahalallalar nomi**	**Izoh** (joylashgan sektor hududi)
1.	“Munchoq” MFY	“Panjob” MFY	3-sektor
2.	“Boshrabot” MFY	“Yomchi” MFY	2-sektor
3.	“Inkobod” MFY	“Omonxona” MFY	1-sektor
4.	“Sho‘rsoy” va “Mustaqillik” MFYlari	“Navro‘z” MFY	4-sektor
5.	“Kosiblar” va “Mustaqillik” MFYlari	“Yangi O‘zbekiston” MFY	4-sektor

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023 yil 2 fevraldagi
VI-60-18-8-110-K/23-son qaroriga
2-ilova

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegarali va tavsifi

“Panjob” MFY

Markazi: “O‘rta Panjob” qishlog‘i

Aholi: 997 ta

Oila: 370 ta

Yer maydoni: 32948 ga

Chegarasi: “Chilonzor” va “Sayrob” MFYlari, Sherobod tumani, Qashqadaryo viloyati.

...

“**Yomchi**” MFY

Markazi: “Yomchi” qishlog‘i

Aholi: 2362 ta

Oila: 643 ta

Yer maydoni: 3428 ga

Chegarasi: “Ko‘lqamish” va “Xo‘jabulg‘on” MFYlari.

...

“**Omonxona**” MFY

Markazi: “Omonxona” qishlog‘i

Aholi: 1620 ta

Oila: 380 ta

Yer maydoni: 13370 ga

Chegarasi: “Dashtig‘oz”, “Pulhokim” va “Duoba” MFYlari.

...

“**Navro‘z**” MFY

Markazi: “Navro‘z” qishlog‘i

Aholi: 2863 ta

Oila: 665 ta

Yer maydoni: 271 ga

Chegarasi: “Gaza”, “Mustaqillik”, “Inkobod” va “Sho‘rsoy” MFYlari hamda yangi tashkil etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” MFY.

...

“**Yangi O‘zbekiston**” MFY

Markazi: “Yangi O‘zbekiston” massivi

Aholi: 2018 ta

Oila: 556 ta

Yer maydoni: 114 ga

Chegarasi: “Mustaqillik”, “Kosiblar”, “Obi” MFYlari hamda yangi tashkil etilayotgan “Navro‘z” MFY.

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023 yil 2 fevraldagi
VI-60-18-8-110-K/23-son qaroriga
3-ilova

Tumandagi “Ko‘lqamish” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik Obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Boysun tumani	“Ko‘lqamish”	1. “Kofrun” 2. “Qo‘ng‘irot” 3. “Quralay”	**Kofrun** – nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.